

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUVNI TARTIBGA SOLISH USULLARI

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Menejment" kafedrasini dotsenti, i.f.n.

Mahmudova Nilufar Abdullo qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Menejment" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning o'ziga xos tomoni, uni tartibga solish usullari va ularning mazmuni yoritilgan. Shuningdek, mazkur sohadagi ayrim muammoli masalalar ko'rsatib o'tilgan. Mavzu doirasida umumiy xulosalar berilgan va tegishli tasiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tartibga solishni bevosita va bilvosita usullari, monopoliyaga qarshi qonunchilik, narxlarni davlat nazorati, ekologik talablar, taqiqlar tizimini ishlab chiqish, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini differensiallashtirish, mehnat munosabatlari, bandlikning ijtimoiy kafolatlari, muvofiqlashtirish shakllari

Kirish

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishini samarali boshqaruvi tizimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotini boshqarish tizimi ayrim hollarda bozor va davlat tomonidan tartibga solishni o'zida uyg'unlashtiradi. Ma'lumki, bozor butun jamiyat ehtiyojlari, mamlakat ijtimoiy birligi, fundamental ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, uzoq muddatli dasturlar va boshqalar bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal eta olmaydi. Shuning uchun, har bir jamiyatda mazkur jamiyatga xos bo'lgan zamonaviy boshqaruvni olib borish kerak bo'ladi.

Bu borada yurtboshimiz o'zlarining ma'ruzalarida: "Zamonaviy oqilona boshqaruvi tizimini joriy etish – oldimizda turgan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir"- deb ta'kidlab o'tganlar.

Demak, mazkur jarayonda zamonaviy boshqaruv va uning sub'yekti bo'lgan menejer faoliyati alohida tavsiflanadi. Tadbirkor bozor iqtisodiyotining mustaqil sub'yekti sifatida mulk egasini mulk funktsiyasidan ajralishi natijasida vujudga keldi, buning natijasida mulkdor va tadbirkor bir-biriga nisbatan avtonom bo'lib qoldi. Bu shuni anglatadiki, mulkdor tadbirkor bo'lmashligi mumkin, lekin tadbirkor mulkdor bo'lishi mumkin.

Korxonani boshqarishda mulkdor, tadbirkor va boshqaruvchi bilan bir qatorda mehnat jamoasi ham ishtirok etadi. Mehnat jamoasini boshqarish sohasi, birinchi navbatda, mehnat munosabatlariga taalluqlidir va mahsulot hamda mehnat sifatiga ta'sir qiladi. Mehnat jamoasi a'zolari eng muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda maslahat funktsiyalarini ham bajaradilar, korxona faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadilar. Xodimlar tomonidan bajariladigan boshqaruv funktsiyalari doirasi ijtimoiy sheriklikning rivojlanish darajasiga, ularning

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

ulushlarga ega bo'lishiga, ma'lumotiga, malakasiga, madaniyatiga, xodimlarning shaxsiy fazilatlariga va boshqa omillarga bog'liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bozor iqtisodiyotida boshqaruvni bilvosita va bevosita tartibga solish dolzARB masala ekanligidan dalolat beradi.

Asosiy qism

Ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, tarkibiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy kabi sohalarda muayyan davlat siyosatini olib borish orqali bozorni tartibga solishning maqsadga muvofiqligi 20 asr oxiridagi global inqirozdan so'ng umume'tirof etildi.

Bozorning o'zini-o'zi boshqarish xo'jalik faoliyatining alohida sub'yektlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi. U mulkdorning, tadbirkorning, mehnat jamoasi a'zolarining o'zini-o'zi boshqarishini va menejerning professional boshqaruvini ta'minlaydi.

Dastlabki boshqaruv munosabatlari mulkdorning o'zini-o'zi boshqarishi, uning mulkka egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish huquqlarini amalga oshirishdir. Boshqacha qilib aytganda, o'zini-o'zi boshqarish mulkdorning funktsiyasi bo'lib, uni to'liq yoki qisman amalga oshirish mumkin. Bozor egasining o'zini-o'zi boshqarishni to'liq amalga oshirishi uning tadbirkor, menejer va mehnat jamoasi a'zolarining boshqaruv funktsiyalarini o'z zimmasiga olishini anglatadi. Bozorning o'zini-o'zi boshqarishning ushbu varianti kichik va xususiy tadbirkorlik uchun odatiy holdir, ammo mulkdor, tadbirkor va boshqaruvchining boshqaruv funktsiyalarini bir-biridan farqlash mumkin.

Bozor iqtisodiyotining turli sub'yektlari o'rtasida boshqaruv funktsiyalarining taqsimlanishi ko'plab omillarga bog'liq. Avvalo, har bir sohaga xos bo'lgan ichki funktsiyalarni ajratib ko'rsatish kerak. Egasi uchun - bu egalik, foydalanish, tasarruf etish. Mulkdor bu funktsiyalarni amalga oshirishda vakolatlarning bir qismini mulkni ishonchli vakil uchun foydalanishga berish, uni ijara berish, korporativlashtirish, foydalanishni nazorat qilish, foydani taqsimlashda ishtiroy etish orqali bozor iqtisodiyotining boshqa sub'yektlariga, birinchi navbatda tadbirkorga berishi mumkin. Mulkni boshqarish vakolatlarini topshirishning bu varianti bozor iqtisodiyoti sharoitida keng qo'llaniladi.

Davlat tomonidan tartibga solish bevosita va bilvosita usullar bilan amalga oshirilib, bu usullar huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'linadi.

To'g'ridan-to'g'ri tartibga solish usullariga davlat tomonidan bozor munosabatlari sub'yektlari faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan normativ hujjatlar, qoidalar, chora-tadbirlar ishlab chiqish kiradi. Jumladan, ularga:

- monopoliyaga qarshi qonunchilik;
- narxlarni davlat nazorati;
- mahsulotlarni sertifikatlash (davlat tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlarning standart talablariga muvofiqligini tasdiqlash);
- ish tarifikatsiyasi (mehnatni ixtisosligi va murakkabligiga ko'ra ajratilishi);
- davlat buyurtmalari;

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

- kichik biznesni, muhim tarmoqlarni, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan hududlarni qo'llab-quvvatlash;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini moliyalashtirish;
- milliylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish (xususiylashtirish) kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

Bilvosita tartibga solish usullari bozor munosabatlari sub'yeqtlarining faoliyatini rag'batlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun turli imtiyozlar yaratishni nazarda tutib, ular soliq tizimidagi, narx siyosatidagi, amortizatsiyadagi, moliya va kredit siyosatidagi imtiyozlarni o'z ichiga oladi.

Huquqiy tartibga solish bozor iqtisodiyoti va mehnat qonunchiligini (qonun-qoidalar, me'yoriy hujjatlar va ko'satmalar), shuningdek, ekologik talablar va taqiqlar tizimini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni tartibga solish iqtisodiy siyosat, konsepsiylar, asosiy yo'naliishlar, maqsadli kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, pul-kredit tizimini barqarorlashtirish, soliq tizimini takomillashtirish, narxlarni nazorat qilish, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini differensiallashtirish, byudjetni rejalashtirish, milliy iqtisodiyotning muhim yo'naliishlarini moliyalashtirish, davlat iqtisodiyotini rivojlantirish, davlat va jamiyatning iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish, davlat buyurtmalarini bajarish shaklida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mehnat munosabatlari va bandlikning ijtimoiy kafolatlari, aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlari va mehnatga layoqatsiz kishilarni himoya qilish;
- aholining ijtimoiy-demografik guruhlari tomonidan eng muhim tovarlar va xizmatlarga bo'lgan iste'molining minimal va oqilona miqdori, pul daromadlari va inson hayot faoliyatining boshqa shartlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy standartlarni ishlab chiqish.

Shunday qilib, davlatning roli quyidagi muvofiqlashtirish shakllaridan foydalangan holda bozor faoliyatining umumiy qoidalarini o'rnatish va himoya qilishdan iborat:

- qonunchilik (shu jumladan monopoliyaga qarshi);
- davlat buyurtmalari;
- eksport va importni litsenziyalash;
- kreditlash stavkalarini aniqlash;
- rag'batlantirishning turli shakllari;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish;
- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va boshqalar.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat zimmasiga bozordan tashqari quyidagi vazifalar ham yuklangan, ularga:

- ekologik xavfsizlikka rioya qilish;

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

- insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish (shu jumladan iste'molchilar);
- daromadlarni qayta taqsimlash;
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash;
- tarkibiy va mintaqaviy nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- samarali xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish kabi vazifalarni kiritishimiz mumkin.

Bu vazifalarni amalga oshirishda davlat tovar-pul munosabatlari amalga oshiriladigan tashkilotlar darajasida o'z-o'zini tartibga solish mexanizmining ishlashiga aralashmasdan yoki cheklamasdan, umuman milliy iqtisodiyot darajasida talab va taklifni tartibga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat organlarining boshqaruvdagi ishtiropi boshida muhim bo'lgan bo'lsa, oxirida minimal tartibga solinadi. Bozor omillari kuchayib borishi bilan davlat ta'siri shakllari tobora ko'proq "yumshoq" tartibga solish vositalariga (soliq, kredit, amortizatsiya, tarif siyosati va boshqalar) aylanmoqda.

Bozor sharoitida boshqaruvni tartibga solishda quyidagi muammolar boshqaruv jarayonini sekinlatishi mumkin:

- mintaqalarning rivojlanish darajasini turli tumanligi;
- aholining psixologik tayyorgarlik darajasini pastligi, ya'ni psixologik tayyor emasligi;
- markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning analog variantining yo'qligi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi boshqaruv evolyutsiyasi milliy iqtisodiyotda o'zini-o'zi boshqarish va rivojlantirishga qodir bo'lgan tuzilmalar faoliyatiga asoslangan tizimni yaratishga qaratilgan. Bunday sharoitda biznes markazlari tobora ko'proq iqtisodiy mustaqillik o'sib borayotgan hududlar darajasiga o'tmoqda. Bir tomonidan, o'zi ham shundoq rivojlangan mintaqalarda hal qilinadigan vazifalar soni va murakkabligining ko'payishiga olib keladi, boshqa tomonidan esa, bu butun milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimini sezilarli darajada soddalashtiradi.

Xususiy tadbirkorlik sohasining kengayishi hisobiga iqtisodiyotning davlat sektori asta-sekin qisqarib bormoqda. Biroq o'tish davri yakunida ham davlat sektori yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismini tashkil qiladi, yirik va o'rta korxonalarning iqtisodiyot uchun ahamiyati pasayishi dargumon. Ammo bunday korxonalarni boshqarish bozor va ma'muriy usullarning uyg'unligiga asoslanishi kerak. U yoki bu usullar guruhining ustunligi mamlakat iqtisodiy tizimidagi korxonalarning holatiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa va takliflar

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Mavzu doirasidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlardan kelib chiqib, bozor sharoitida boshqarishni tartibga solishda quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. Tashkilot faoliyatini bozor talabi va ehtiyojlariga yo'naltirilgan holda boshqarish - aniq iste'molchilar xohishlarini inobatga olish va talab yuqori bo'lgan mahsulot turini ishlab chiqarishga asoslanadi.

2. Jamiyat ishlab chiqarishni boshqarishda uning samaradorligini oshirish uchun kam xarajatlar bilan eng yaxshi natijalarga erishishga muntazam harakat qiladi.

3. Korxona, tashkilot faoliyatining yakuniy natijalari uchun mas'ul bo'lgan shaxslarga qaror qabul qilish, erkinligini beruvchi xo'jalik mustaqilligiga ega bo'lism lozim bo'ladi.

4. Bozordagi holatga mos ravishda maqsadlar va dasturlarni muntazam ravishda moslashtirib boriladi.

5. Boshqaruvning barcha darajalarida asoslangan va aniq qarorlar qabul qilishda axborot kommunikatsiya texnologiyasidan foydalanish darajasi ortib boradi, shuningdek turli zamonaviy axborot manbalaridan foydalanish kengayib boradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy boshqaruvni tartibga solishda boshqaruv tizimlari hamda quyi tizimlar uchun quyidagi tamoyillarni tavsiya etamiz:

1. Tizimning o'zini-o'zi tashkil qiluvchi va o'zini-o'zi boshqaruvchi innovatsion usullarni shakllantirish va rivojlantirish.

2. Ijobiy va salbiy og'ishlarga o'z vaqtida tez e'tibor berish, firmada birgalikdagi harakatlarni tashkil qilish borasida ko'rilgan tadbirlarni joriy va funksional natijalarga erishishga yordam berayotgan, hamma samarali ishlashga g'ov bo'layotgan omillarga baho berish.

3. Odamlarni boshqarish, ishlab chiqarishni yangilash uchun tashkilotdan tashqari aloqalarni boshqarish usuli va jarayonlarni sintez qilish orqali ularni samarali birlashtirish.

4. Korxonalarning mustaqilligini ta'minlash, yani o'zini-o'zi boshqarish sohasini sezilarli darajada kengaytirish lozim. Menejerlar tomonidan bajariladigan ishlarning hajmi va tavsifini takomillashtirish lozim.

5. Ilmiy texnika taraqqiyotini innovatsion boshqaruvining samarali mehnat qilishga sharoit yaratishga qaratilgan vositalaridan biriga aylantirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dedajanov B.N. "Menejment". Darslik. –Toshkent.: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2022. – 580 b.

2. Dedajanov, B. N. (2021). FOREIGN MANAGEMENT MODELS: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES. In ЭКОНОМИКА И

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В СОВРЕМЕННОМ ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ (pp. 17-20).

3. Dedajanov, B. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION. *Вестник Российской экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Путь в науку*, (3), 92-103.
4. Kazakov O.S. "Iqtisodiyot va menejment" (O'quv qo'llanma) - T.: "Usmon Nosir media" nashriyoti. 2022. – 320 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. "Adolat" gazetasi 2018 yil 29-dekabr № 52 (1221).
6. Б.Н.Дедажанов, Ф.И.Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019.
[https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%20202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%20202019.pdf#page=24)
7. Дедажанов Б.Н. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ - ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ. Современные технологии и автоматизация в технике, управлении и образовании. Сборник трудов III Международной Научно-практической конференции. Балаково, 2021. С. 293-297.